



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No8(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 234 sahifa,
12-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

The Role of English Collocations, Idiomatic Expressions, and Phraseological Units in Developing Communicative Competence in Higher Education	10
<i>Alimov Jamshid Ravshanovich</i>	
Milliy xoslangan lisoniy birliklarni teglash tamoyillari	16
<i>Yorkulov Zafarjon Bakirovich</i>	
Oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro tushunishning shaxs kognitiv rivojlanishiga ta'sirining psixologik xususiyatlari	20
<i>Vaydulla Madinabonu Muxtasam qizi</i>	
O'qituvchilar darslarni qanday qiziqarli tashkil etishlari mumkin?	26
<i>Dilnura Rustamovna Xamrayeva</i>	
Tarbiya texnologiyasi – talabalarda ilmiy va sinergetik dunyoqarashni shakllantirish omili sifatida	33
<i>Mamadaliyev Kamolidin Rahmatullayevich</i>	
Maktab direktor maslahatchilarida strategik boshqaruv tafakkurini rivojlantirishning psixologik omillari	40
<i>Rahmatova Nasiba Sobirovna</i>	
Umumta'lim maktablarida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini sinfdan tashqari faoliyat orqali takomillashtirishning pedagogik-metodik tizimi	46
<i>Urinbayeva Dilfuza Abdumannobovna</i>	
Integrativ ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish	50
<i>Xoldavlatova Gavhar Normaxmatovna</i>	
Klaster asosida TVET tizimida pedagogik innovatsiyalar	55
<i>Sobir Azizov</i>	
Muammoli ta'lim texnologiyasi orqali talabalarining kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish: "muammo" divergent–konvergent o'quv sikli	57
<i>Djumabayev G'ulomjon Xalillayevich, Yusupov Muxtorbek Roximovich</i>	
Oliy ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya darslarida regbi elementlarini o'rgatishning tashkiliy-metodik asoslar	62
<i>E. E. Jumayev</i>	
Autentik materiallar asosida bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining til ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasining eksperimental samaradorligi	65
<i>Jumayeva Gulxan Amrullayevna</i>	
Aleksandr Nil pedagogik ta'limotida shaxs erkinligini rivojlantirish mexanizmlari: ingliz filologiyasi talabalari misolida	71
<i>Atamirzayev Bahrom Bahodir o'g'li</i>	
TPACK modeli asosida ingliz tilida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning adaptiv metodik tizimi	75
<i>Omonova Maftuna Shermatovna</i>	
Multimodal vizual tayanchlar va flashcard asosidagi topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilidagi og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	82
<i>Sevara Alimurodova, Ayubova Said</i>	
Raqamlashtirish jarayonida elektron ta'lim resurslarini yaratishning metodik asoslarini takomillashtirish	88
<i>Nurmaxanov Kayrat Erpayizovich</i>	
Modulli ta'lim texnologiyalari orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirishning pedagogik asoslari	95
<i>Poyonova Fazilat Olimovna</i>	
Individual ta'lim sharoitida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash samaradorligini pedagogik tajriba-sinov va matematik-statistik tahlil asosida baholash	100
<i>Gulbaxor Abdullayevna Gaynazarova</i>	



Oliy ta'lim muassasalarida raqamli menejment tizimlarini joriy etish muammolari va ularni bartaraf etishning samarali yo'llari	106
Matnazarov Hurmatbek Egamberganovich	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini boshqarishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	110
Sodiqov Rafikjon Turobjon o'g'li	
Bo'lajak tarbiyachilarning liderlik-boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ...	114
To'xtayeva Dilrabo Nematovna	
Inklyuziv ta'lim: mohiyati, tamoyillari	119
Choriyeva Muxlisa Jumamurodovna	
The Role of Neuromuscular Dentistry in Dental Practice	123
Turayev Alimjan	
Orthodontics' Digital Transformation (Literature Review)	128
Khusanbaeva Jasmin Shavkatovna, Xazratov A. I.	
O'zbekiston SSRda ta'lim islohotlari davrida pedagogika bilim yurtlari faoliyatida o'qituvchilarni tayyorlash jarayonlari va amaliy muammolar	136
Mamatkulova Maxfuza Kozimovna	
Application of Mechanotherapy Techniques in Oral and Craniofacial Surgical Methodologies (Literature Review)	140
Marufova Farangiz Gayratovna	
Theoretical Foundations for Developing Communicative Competence of Future Doctors	147
Nasimova Shahnoza Ziyodullayevna	
Формирование функциональной грамотности и "гибких навыков" (Soft Skills) у учащихся начальных классов в контексте реализации национальной учебной программы Узбекистана	152
Ю. С. Тажиева	
Talabalarda mustaqil ta'lim olish faoliyatini rivojlantirish metodlari	156
Jabborov Toxirjon Maqsudali o'g'li	
Ingliz va qoraqalpoq tillaridagi onim komponentli frazeologizmlarning lingvomadaniy xususiyatlari	160
Koyshekenova Tatyana Kenesariyevna	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi	164
Qo'shaqov Farrux Furqat o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv faollikni oshirishning pedagogik usullari	169
Xoldarova F. M.	
Ingliz tili darslarida ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasi	172
Madaminova Muzifa Shukurullo qizi	
Sport ta'limi yo'nalishidagi o'quvchilarining generativ sun'iy intellekt kompetensiyasini baholash mezonlari va indikatorlarini takomillashtirish	178
Nematova Rushana Nemat qizi	
Inklyuziv ta'lim sharoitida koxlear implantli bolalarning eshituv-nutqiy faoliyatini pedagogik tashkil etish metodikasi	184
Mirzayeva Umida Inamovna	
Umumiy o'rta ta'lim muassasasida ijtimoiy-madaniy muhitni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati	188
Malikova Dilrabaxon	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy-subyektiv pozitsiyasini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	194
Temirova Shoxsanam Komilovna	
O'zbek tilidagi lingvomadaniy kollokatsiyalarning assotsiativ-semantik xususiyatlari	201
Boymirova Dilshoda Oblayor qizi	
Методы развития компетенций будущих учителей начальной школы в области создания текстов	208
Хаитова Нодира Бафроевна	



Inklyuziv maktabgacha ta'limda bolalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvida madaniy-tarixiy va ekologik yondashuvlar integratsiyasi	216
Mengliyeva Gavhar Ibrohim qizi	
Maktabgacha ta'lim jarayonida induktiv metodlardan foydalanishning xorijiy tajribasi	220
Mirazimova Muxabbat Normatovna	
Virtual muzeylar orqali tarixiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik modeli	225
To'ranazarova Muxlisaxon Davlatjon qizi	
Қорақалпоқ, туркман ва инглиз эртақларида образли нутқнинг миллий моделлари: фразеологизм, ранг ва маиший тимсоллар	230
Жепбарова Саят Курбанмиратовна, Жаумитбаева Перийзат Караматдиновна	

INKLYUZIV MAKTABGACHA TA'LIMDA BOLALARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MOSLASHUVIDA MADANIY- TARIXIY VA EKOLOGIK YONDASHUVLAR INTEGRATSIYASI

Mengliyeva Gavhar Ibrohim qizi

Termiz davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada inklyuziv maktabgacha ta'lim sharoitida bolalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvini ta'minlash masalasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda L. Vygotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasi, yaqin rivojlanish zonasi, mediatsiya va o'yin faoliyati hamda U. Bronfenbrenning ekologik tizimlar nazariyasi o'zaro integratsiyada yoritilgan. Shuningdek, faoliyat va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida moslashuvning emotsional, xulq-atvor va ijtimoiy jihatlari ko'rib chiqiladi. "Bola, ota-ona, pedagog" hamkorligiga asoslangan diagnostika, intervensiya va monitoring modeli taklif etilib, O'zbekiston sharoitida inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omillari asoslanadi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, maktabgacha ta'lim, ijtimoiy-psixologik moslashuv, madaniy-tarixiy yondashuv, ekologik yondashuv, yaqin rivojlanish zonasi, mediatsiya.

Abstract: This article analyzes the issue of ensuring the socio-psychological adaptation of children in the context of inclusive preschool education. The study integrates L. Vygotsky's cultural-historical theory, the zone of close development, mediation and game activity, and W. Bronfenbrenner's theory of ecological systems. It also examines the emotional, behavioral, and social aspects of adaptation based on activity- and person-centered approaches. A diagnostic, intervention, and monitoring model based on the "child, parent, educator" partnership is proposed, and important factors for increasing the effectiveness of inclusive education in the context of Uzbekistan are substantiated.

Key words: inclusive education, preschool education, socio-psychological adaptation, cultural-historical approach, environmental approach, close development zone, mediation.

Аннотация: В данной статье анализируется вопрос обеспечения социально-психологической адаптации детей в условиях инклюзивного дошкольного образования. В исследовании культурно-историческая теория Л. Выготского, зона близкого развития, медиация и игровая деятельность, а также теория экологических систем У. Бронфенбреннера освещены во взаимной интеграции. Также рассматриваются эмоциональные, поведенческие и социальные аспекты адаптации на основе деятельностно- и личностно-ориентированных подходов. Предложена модель диагностики, интервенции и мониторинга, основанная на сотрудничестве "ребенок, родитель, педагог", и обоснованы важные факторы повышения эффективности инклюзивного образования в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: инклюзивное образование, дошкольное образование, социально-психологическая адаптация, культурно-исторический подход, экологический подход, зона близкого развития, медиация.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimining demokratlashuvi va teng imkoniyatlar yaratish g'oyasi inklyuziv amaliyotni ustuvor yo'nalishga aylantirdi. Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muhitiga qo'shish jarayoni faqat tashkiliy choralarni emas, balki chuqur psixologik tayyorgarlikni ham talab etadi. Maktabgacha yoshda shakllanadigan ijtimoiy ko'nikmalar keyingi hayotdagi muvaffaqiyatning kaliti bo'lib xizmat qiladi. Shu bois inklyuziv guruhlarda bolalarning emotsional farovonligi, tengdoshlar bilan o'zaro munosabati va moslashuv mexanizmlarini o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy ta'lim tizimida inklyuziv yondashuvning keng joriy etilishi bolalarning individual xususiyatlaridan qat'iy nazar, ularning to'liq ishtirokini ta'minlashni talab qilmoqda. Maktabgacha ta'lim bosqichi shaxsning ijtimoiy-psixologik rivojlanishi uchun asosiy poydevor hisoblanadi. Aynan shu yoshda bola oiladan tashqar



ridagi birinchi ijtimoiy muhitga kiradi. Tengdoshlar bilan munosabatlarni o'rganadi. O'zini va boshqalarni qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Inklyuziv guruhlarda esa bu jarayon yanada murakkablashadi, chunki bir xil muhitda turli rivojlanish darajasidagi, shu jumladan, maxsus ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar birga tarbiyalanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ijtimoiy-psixologik moslashuv - bu shaxsning yangi ijtimoiy sharoitlarga faol va samarali moslashish, emosional barqarorlikni saqlash, ijtimoiy normalarni o'zlashtirish va o'zaro munosabatlarni muvaffaqiyatli o'rnatish jarayonidir. Maktabgacha yoshda bu jarayonning muvaffaqiyati keyingi ta'lim bosqichlaridagi muvaffaqiyat, shaxsiy farovonlik va ijtimoiy integratsiyani belgilaydi. "Maktabgacha ta'lim muassasasi bolalarni o'qitish va ijtimoiylashtirishning birinchi bosqichi hisoblanadi, inklyuziv guruh esa bola turli odamlar bilan o'zaro munosabatga kirishishni o'rganadigan, ijtimoiy normalarni o'zlashtiradigan ta'lim makonidir" [2:3].

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasi, maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiya qilish dasturlari va maxsus ehtiyojli bolalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari bu yo'nalishni ustuvor qilib qo'ydi. Biroq amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, faqat tashkiliy va me'yoriy sharoitlarni yaratish yetarli emas. Bolalarning emosional xavfsizligi, tengdoshlar tomonidan qabul qilinishi, o'qituvchi va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlik kabi psixologik omillar muhim rol o'ynaydi. Xalqaro tajriba ham shuni tasdiqlaydi.

L. Vygotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasi va U. Bronfenbrennning ekologik tizimlar nazariyasi inklyuziv muhitda bolaning rivojlanishini tushunish uchun eng kuchli nazariyalar hisoblanadi. "Bolaning madaniy rivojlanishidagi har bir funktsiya sahnaga ikki marta chiqadi, ikki tekislikda: avval ijtimoiy, so'ng psixologik; avval odamlar o'rtasida intermental kategoriya sifatida, so'ng bola ichida intramental kategoriya sifatida" [3:106], - deb L. Vygotskiy o'rinli ta'kidlagan. Bu qoida inklyuziv guruhdagi o'zaro ta'sirlar orqali oliy psixik funksiyalarning shakllanishini tushuntiradi.

Inklyuziv muhitda moslashuv jarayoni faqat maxsus ehtiyojli bolalarga taalluqli emas. Normotipik bolalar ham yangi sharoitlarga moslashishi, boshqacha rivojlanayotgan tengdoshlarini qabul qilishi, empatiya va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishi kerak. Shu bois tadqiqotlarning aksariyati barcha ishtirokchilarni qamrab oluvchi yondashuvni talab qiladi. Xususan, Rossiyada bu muammo bo'yicha chuqur dissertatsion ishlar mavjud. Biroq turkiy davlatlarda, jumladan, O'zbekistonda tadqiqotlar hali asosan amaliy va tavsifiy xarakterga ega. Bu holat nazariy-metodologik asoslarni mustahkamlash zaruratini yanada oshiradi.

Metodologik jihatdan eng samarali vositalar: strukturaviy kuzatuv, sotsiometrik o'lchovlar, emosional holatni baholash (xavotir, agressivlik), ota-ona va pedagog so'rovnomalari, individual rivojlanish xaritalari. Intervensiya dasturlari o'yin, nafas olish mashqlari, rolli o'yinlar, guruh faoliyatlarini o'z ichiga olishi kerak. Diagnostika bosqichida bolaning emosional holati, ijtimoiy ko'nikmalari va munosabatlari kompleks baholanadi. Intervensiya bosqichida esa individual va guruh shakllaridagi ishlar olib boriladi. Monitoring esa jarayonning dinamikasini kuzatish va dasturni tuzatish imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda inklyuziv maktabgacha ta'lim sharoitida bolalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvini o'rganishga qaratilgan kompleks yondashuv qo'llanildi. Metodologik asos sifatida L. Vygotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasi, yaqin rivojlanish zonasi va mediatsiya tamoyillari hamda U. Bronfenbrennning ekologik tizimlar nazariyasidan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, strukturaviy kuzatuv, sotsiometrik o'lchovlar, ota-ona va pedagoglar so'rovnomalari hamda individual rivojlanish xaritalarini o'rganish metodlari qo'llanildi. Olingan ma'lumotlar asosida "bola, ota-ona, pedagog" hamkorligiga tayangan diagnostika, intervensiya va monitoring modeli ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ijtimoiy-psixologik moslashuvning nazariy asoslarini tushunish uchun bir necha asosiy paradigmalarni birlashtirish zarur.

*Birinchi*dan, L. S. Vygotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasi. Bu nazariyaga ko'ra, bolaning rivojlanishi biologik omillar bilan bir qatorda, madaniy vositalar va ijtimoiy o'zaro ta'sirlar orqali amalga oshadi. "Ijtimoiy muhitning roli bola tomonidan bosqichma-bosqich o'zlashtiriladigan shaxsning barcha o'ziga xos insoniy xususiyatlarining paydo bo'lish manbai hisoblanadi" [4:203]. Inklyuziv guruhda bu g'oya juda muhim. Maxsus ehtiyojli bola va normotipik bola o'rtasidagi o'zaro ta'sir "yaqin rivojlanish zonasi" (YRZ)ni kengaytiradi. O'qituvchi yoki tengdosh "mediator" sifatida ishlaydi. L. Vygotskiy ta'kidlaganidek, o'yin maktabgacha yoshda yetakchi faoliyat hisoblanadi va YRZni yaratadi: "O'yinda bola doimo o'z yoshidan yuqori, odatdagi kundalik xulq-atvoridan ustunroq tutadi; o'yinda u o'zidan bir bosh balandroqdek bo'ladi" [5:6-18].



Ikkinchidan, U. Bronfenbrennening ekologik tizimlar nazariyasi. Bola rivojlanishi bir-biriga bog'langan tizimlar ichida sodir bo'ladi: mikrotizim (oila, guruh), mezotizim (oila va maktabgacha muassasa o'rtasidagi aloqa), ekzotizim (ota-onaning ish joyi, ta'lim siyosati), makrotizim (madaniy qadriyatlar, qonunchilik) va xronotizim (vaqt o'zgarishlari). "Rivojlanish nafaqat bolaning bevosita atrof-muhiti, balki o'sib borayotgan inson organizmi va o'zgaruvchan muhitlar o'rtasidagi progressiv moslashish bilan ham shakllanadi" [6:514]. Inklyuziv ta'limda bu model shuni ko'rsatadiki, faqat guruh ichidagi o'zgarishlar yetarli emas. Oila ishtiroki, jamiyat munosabati va davlat siyosati birgalikda ishlashi kerak. Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, oila va maktabgacha muassasa o'rtasidagi kuchli mezotizim bolaning muvaffaqiyatli moslashuvini sezilarli darajada oshiradi. Ekologik yondashuv inklyuziyani faqat sinf yoki guruh darajasidagi muammo sifatida emas, balki butun jamiyat darajasidagi jarayon sifatida ko'rishga imkon beradi.

Uchinchidan, faoliyat yondashuvi va shaxsga yo'naltirilgan yondashuv. Bola passiv obyekt emas, balki faol subyekt sifatida ko'riladi. Moslashuv - bu faqat tashqi sharoitlarga moslashish emas, balki shaxsning o'z ichki resurslarini faollashtirishi va muhitni o'zgartirishidir. Bu yondashuv inklyuziv guruhda bolaning faol ishtirokini rag'batlantirish, uning qiziqishlari va imkoniyatlarini hisobga olishni taqozo etadi. Rossiyalik olim T. V. Lutsenko tadqiqotida bu yondashuvlar sintez qilingan. Uning fikricha: "Inklyuziv guruhda ta'lim sharoitlariga maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvi emotsional farovonlik/nofarovonlik xususiyatlarida, ularda ijtimoiy xulq-atvor ko'nikmalarining rivojlanishida, tengdoshlar va muhimi, kattalar bilan shaxslararo munosabatlar xarakterida mazmunan ochiladi" [2:12]. Shu bilan birga, adaptatsiya nazariyalari (A. A. Nalchadzhyan, A. A. Rean) ham muhim o'rin tutadi. Ular moslashuvni ikki tomonlama jarayon - shaxs va muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sir sifatida ko'radi. Bu yondashuvlar birgalikda inklyuziv muhitda bolaning rivojlanishini tushunish uchun yaxlit nazariy asos yaratadi. Madaniy-tarixiy yondashuv ichki mexanizmlarni, ekologik yondashuv esa tashqi sharoitlarni yoritadi. Ularning integratsiyasi esa amaliy dasturlarni ishlab chiqish uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Metodologik jihatdan inklyuziv maktabgacha ta'limda ijtimoiy-psixologik moslashuvni o'rganish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Asosiy prinsiplar: tizimlilik, shaxsga yo'naltirilganlik, faoliyatlilik, madaniy sezgirlik va interdissiplinarlik. Bu prinsiplar diagnostika, intervensiya va monitoring jarayonlarini bir-biriga bog'laydi. T. V. Lutsenko tadqiqotida empirik ma'lumotlar asosida ayrim xulosalar chiqarilgan. Maxsus dastursiz inklyuziv guruhlarda bolalarning sezilarli qismi normal muddatda moslashuvni yakunlay olmaydi. "IPM - ijtimoiy-psixologik moslashuv darajalari bo'yicha natijalarning qiyosiy tahlili shuni ko'rsatdiki, maxsus yordam bo'lmaganda bolalarning deyarli uchdan birida (32,7 foiz) IPM jarayoni umumiy qabul qilingan muddatlarda (uch oygacha) yakunlanmaydi" [2:18]. Maxsus ko'pkomponentli dastur (bola, ota-ona, pedagog bilan ishlash) natijasida moslashgan bolalar ulushi 89 foizga yetgan. Bu natija maxsus psixologik-pedagogik yordamning zarurligini aniq ko'rsatadi. Xalqaro tadqiqotlarda ham shunga o'xshash natijalar mavjud. O'yin asosidagi yondashuvlar va oila ishtiroki eng samarali deb topilgan.

S. Odom va boshqalar U. Bronfenbrenner modeliga asoslanib, inklyuziv maktabgacha ta'limni tahlil qilib, bolalar uchun ijobiy rivojlanish natijalarini, lekin ijtimoiy integratsiya bo'yicha qiyinchiliklarni qayd etganlar. Ularning ishida ekologik tizimlar nuqtai nazaridan bolaning biosistemi, mikrotizimdagi amaliyotlar, oila istiqbolari va madaniy omillar birgalikda ko'rib chiqilgan. L. Vygotskiy yondashuvi asosida o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sifatli mediatsiya va scaffolding bolalarning ijtimoiy kompetensiyasini sezilarli oshiradi. O'yin orqali bolalar o'z imkoniyatlaridan yuqori darajada faoliyat yuritadi. Bu esa ijtimoiy ko'nikmalarni tezroq o'zlashtirishga yordam beradi.

O'zbekistonda tadqiqotlar hali asosan tavsifiy xarakterga ega. So'nggi yillarda chiqqan maqolalar psixologik xavfsizlik, empatiya va o'qituvchi malakasining ahamiyatini ta'kidlaydi. Qozog'iston va Turkiyada esa stakeholderlar munosabati, o'yin asosidagi texnologiyalar va madaniy sezgirlik bo'yicha empirik ishlar ko'paymoqda.

Yuqoridagi tahlil asosida quyidagi integratsiyalashgan model taklif etiladi. Model uchta asosiy qatlamdan iborat:

Birinchidan, nazariy qatlam: L. Vygotskiy (YRZ, mediatsiya, o'yin), U. Bronfenbrenner (ekologik tizimlar), faoliyat yondashuvi. Bu qatlam bolaning rivojlanish mexanizmlarini tushuntiradi va amaliyot uchun yo'nalish beradi.

Ikkinchidan, metodologik qatlam: diagnostika, intervensiya, monitoring sikli. "Bola, ota-ona, pedagog" triadasiga asoslangan ish. Bu triadada har bir ishtirokchi faol rol o'ynaydi. Bola o'z rivojlanishining subyekti, ota-ona asosiy hamkor, pedagog esa mediatsiya va muhitni tashkil etuvchi sifatida ishlaydi.

Uchinchidan, amaliy qatlam: guruh muhitini moslashtirish, individual rejalashtirish, oila ishtiroki, o'qituvchilar malakasini oshirish. Amaliy jihatlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: emotsional xavfsizlikni ta'minlash, bolalar o'zini qabul qilingan his qilishi kerak.



Tengdoshlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni maxsus tashkil etilgan o'yinlar va qo'shma faoliyatlar orqali rag'batlantirish. O'qituvchining scaffolding roli - bolaning YRZsi doirasida yordam berish va asta-sekin mustaqillikka o'tkazish. Oila bilan doimiy aloqa, uy va maktabgacha muassasa o'rtasidagi uzluksizlikni ta'minlash. Madaniy vositalardan foydalanish - milliy o'yinlar, ertaklar, an'analar orqali bolaning madaniy identifikatsiyasini mustahkamlash.

T. Lutsenko dasturi misolida ko'rinadiki, bunday yondashuv nafaqat maxsus ehtiyojli bolalar, balki normotipik bolalar uchun ham foydali. Ular empatiya, bag'rikenglik va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'zbekiston sharoitida modelni amalga oshirishda quyidagi omillar hisobga olinishi lozim: oilaning an'anaviy roli, resurslar cheklanganligi, o'qituvchilar tayyorgarligi, jamiyat munosabati. "Imkon" va "Umid" kabi markazlar tajribasi asosida maktabgacha ta'lim muassasalarida inklyuziv guruhlarini kengaytirish mumkin. Modelning samaradorligi doimiy monitoring va moslashuvchanlik bilan ta'minlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, inklyuziv maktabgacha ta'limda bolalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvi murakkab, ko'p qatlamli jarayon bo'lib, uni faqat tashkiliy choralar bilan hal etib bo'lmaydi. Nazariy asos sifatida madaniy-tarixiy va ekologik yondashuvlarning integratsiyasi eng samarali hisoblanadi. Empirik ma'lumotlar va maxsus dasturlar "bola, ota-ona, pedagog" hamkorligining ahamiyatini ta'kidlaydi. Moslashuv emotsional, xulq-atvor va munosabatlar sohalarini qamrab oladi. Maxsus yordamsiz jarayon kechikishi mumkin.

O'yin, mediatsiya va oila ishtiroki kalit omillardir. O'zbekiston sharoitida bu modelni joriy etish uchun mahalliy empirik tadqiqotlar, o'qituvchilar malakasini oshirish dasturlari va oila-jamiyat hamkorligini kuchaytirish zarur. Inklyuziv ta'limning muvaffaqiyati nafaqat me'yoriy hujjatlar, balki chuqur nazariy-metodologik asoslar va amaliyotning uyg'unligiga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Луценко Т.В. Социально-психологическая адаптация дошкольников в инклюзивной группе: диссертация кандидата психологических наук: 19.00.07. - Москва: Московский городской педагогический университет, 2019. - 245 с.
2. Луценко Т.В. Социально-психологическая адаптация дошкольников в инклюзивной группе: автореферат дис. ... канд. психол. наук. - Москва, 2019. - 24 с.
3. Vygotsky L.S. The Collected Works of L.S. Vygotsky. Vol. 4: The History of the Development of Higher Mental Functions. - New York: Plenum Press, 1997.
4. Vygotsky L.S. The Collected Works of L.S. Vygotsky. Vol. 5: Child Psychology. - New York: Plenum Press, 1998.
5. Vygotsky L.S. Play and its role in the mental development of the child // Soviet Psychology. - 1967. - Vol. 5. - No. 3. - P. 6-18.
6. Bronfenbrenner U. Toward an experimental ecology of human development // American Psychologist. - 1977. - Vol. 32. - No. 7. - P. 513-531.
7. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 1979.
8. Bronfenbrenner U., Morris P.A. The bioecological model of human development // Handbook of Child Psychology. Vol. 1. - Hoboken, NJ: Wiley, 2006. - P. 793-828.
9. Odom S.L. et al. Preschool inclusion in the United States: a review of research from an ecological systems perspective // Journal of Research in Special Educational Needs. - 2004. - Vol. 4. - No. 1. - P. 17-49.
10. Mallory B.L., New R.S. Social constructivist theory and principles of inclusion: Challenges for early childhood special education // The Journal of Special Education. - 1994. - Vol. 28. - No. 3. - P. 322-337.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.